

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

POYONOV BOBIR BEKMUROD O‘G‘LI

**TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARINING
LIKVIDLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja olish
uchun yozilgan dissertatsiya**

AVTOREFERATI

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in
economic sciences**

Poyonov Bobir Bekmurod o‘g‘li

Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidligini oshirish
yo‘llari..... 3

Поёнов Бобир Бекмуродович

Пути повышения ликвидности коммерческих банков в процессе
трансформации 27

Poyonov Bobir Bekmurod ogli

Ways to increase the liquidity of commercial banks in the process of
transformation 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

POYONOV BOBIR BEKMUROD O'G'LI

**TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARINING
LIKVIDLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja olish
uchun yozilgan dissertatsiya**

AVTOREFERATI

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.4.PhD/Iqt1794 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent Kimyo xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kuziyeva Nargiza Ramazanova
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailov Alisher Agzamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Tojiyev Raxmatulla Raxmonovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.I.23.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “___” ____ kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___» ____ kuni tarqatildi.

(2026-yil «___» ____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligidan nafaqat tijorat banklari, balki Markaziy banklar ham kuchli va tabiiy jihatdan manfaatdor hisoblanadi. Biroq, jahon iqtisodiyotidagi global beqarorlik ta'sirida keyingi yillarda xalqaro moliya institutlarida har 5–10 yilda ro'y beradigan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar dunyoning barcha mamlakatlari banklari moliyaviy munosabatlarida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, "dunyo miqyosida global moliyaviy inqirozdan oldin, 93 mamlakatda chorak asr mobaynida moliyaviy muassasalarda 117 marta tizimli va 50 dan ortiq jiddiy moliyaviy muammolar yuz berdi"¹. Mazkur inqiroz holatlari milliy va xalqaro darajada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning tijorat banklarini transformatsiyalash jarayonida likvidlilikni ta'minlash yuzasidan aniq talablar qo'yishni taqozo etadi.

Jahon bank amaliyotida tijorat banklari likvidliligin tartibga solish bo'yicha qator talablar, me'yorlar va tamoyillarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirgan. Ushbu tadqiqotlarda tijorat banklari likvidliligi bilan bog'liq riskni kamaytirish, likvidlilikni tartibga solish va ta'minlash, uni aniqlashni hamda raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari likvidliligin tartibga solishda kutilmaganda talablarni bajarish, yuqori likvidli va barqaror mablag'lar bilan ta'minlash kabi masalalar o'zining ilmiy yechimini topmagan. Xususan, banklarning riskli aktivlari va muddatli mablag'lari o'rtasida muvozanatni buzilishi, banklarning likvid mablag'larga bo'lgan talabini zudlik bilan qondirilmasligi, likvidlilikni tartibga solishda bozor instrumentlaridan foydalanmasligi kabi masalalar ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy barqarorligi, aholi va real sektorni kreditga bo'lgan talabini qondirish hamda mijozlar oldidagi majburiyatlarni to'liq va to'xtovsiz bajarilishi amalga oshirilayotgan islohotlarda, "... bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining talablariga asosan, tijorat banklarining mablag'lari yetarliligi va likvidliligi darajasini qo'lllab-quvvatlash"² vazifasi belgilab qo'yilgan. Biroq, depozitlarning asosiy ulushini muddatsiz depozitlar tashkil etadi, aktivlar tarkibida hukumatning va Markaziy bankning yuqori likvidli aktivlari deyarli shakllanmagan, bankning depozit, kredit, foiz siyosatlarining amalda samarali emasligining ilmiy jihatdan asoslab berish va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish respublikamiz bank tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida",

¹ Financial stability: 10 questions and about seven answers. Speech delivered by Mr Jaime Caruana, General Manager of the BIS, at the 50th Anniversary Symposium of the Reserve Bank of Australia, Sydney, 9 February 2010. <https://www.bis.org/speeches/sp100209.htm>

² "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-son “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikamizdagi fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Banklar to‘lov qobiliyatini mustahkamlashning ayrim nazariy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlar Dj.Sinki, P.Rouz, E.Dj.Dolan, Kris Dj.Barl trop, D.Mak Noton, O.Lavrushin, I.Larionova, V.Usoskin, V.Kolesnikov, G.Panova larning, Christa H.S. Bouwman, Óscar Jordà, Björn Richter, Moritz Schularick, Alan M. Taylor larning, Javier Bianchi, Saki Bigio larning, Natacha Valla, Béatrice Saes-Escorbiac, Muriel Tiesset larning³ ilmiy asarlarida kuzatish mumkin.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan B.T.Berdiyarov, T.I.Boboqulov, T.M.Qoraliyev, A.A.Omonov, O.B.Sattarov larning⁴ ilmiy tadqiqotlarida va asarlarida tijorat banklari likvidliligini boshqarish, resurslarini shakllantirish, bank aktivlari hamda passivlarini samarali boshqarish kabi masalalar atroficha tadqiq qilingan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidliligini oshirish masalalari kompleks va tizimli

³ Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрий финансовых услуг, пер. с англ.- Дж. Синки, М. Алтана Бизнес бакс, 2007-1018 с.; Роуз П.С. Банковский менеджмент. - М.: Дело-ЛТД. 1995.-743 с. Philip Davis, Е. (2009); Долан Э. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Пер.с англ. – М.: Кемпбелл, 1996-448 с;Колесников В. и др. Банковское дело. – М.: «Финансы и статистика». 1995-480 с. Панова Г. Кредитная политика коммерческого банка. М: МКЦ, 1997-464 с. Усоскин В. современный коммерческий банк: управление и операции. –М.: Антидар, 1998-320 с. Ларинова И. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. – М.: «Консалтбанкир», 2003-272 с. Лаврушин О. Банковское дело. Учебник. 2-е издание. – М.: Финансы и статистика, 2005-672 с. Christa H.S. Bouwman. Liquidity: How Banks Create It and How It Should Be Regulated. Forthcoming in The Oxford Handbook of Banking (2nd edition; A.N. Berger, P. Molyneux, and J.O.S. Wilson (eds.)) Case Western Reserve University and Wharton Financial Institutions Center October 2013. P. 29-31.Óscar Jordà, Björn Richter, Moritz Schularick, Alan M. Taylor . Bank Capital Redux: Solvency, Liquidity, and Crisis. Federal Reserve bank of san Francisco working paper series. March 2017. P. 33-35. Javier Bianchi Saki Bigio. Banks, liquidity management and monetary policy. National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 September 2014. Working Paper 20490 <http://www.nber.org/papers/w20490> P. 21-25. Natacha Valla, Béatrice Saes-Escorbiac and Muriel Tiesset. Bank liquidity and financial stability,/Irving Fisher Committee on Central Bank Statistics/IFC Bulletin No 28. August 2008 P. 41-42.

⁴Berdiyarov B.T. Tijorat banklarining likvidliligini ta‘minlash masalalari dis. avt. –T.: 2020, BMA, 46 б., Bobaqulov T.I. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta‘minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. i.f.d. ilm. daraja. olish uchun baj. dis. avt. –T.: 2008, BMA, 36 б., Qoraliyev T.M. Sattarov O.B. va boshqalar. Tijorat banklari faoliyati tahlili. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2013. 192 б. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. i.f.d. ilm. daraja. olish uchun baj. dis. avt. –T.: 2008, BMA, 36 б.

tarzda to’liq o’rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog’liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidligini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklarining tijorat banklarining likvidligiga oid ilmiy-nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish va ularning huquqiy asoslarini baholash;

tijorat banklarida likvidlikni boshqarishning amaldagi tizimini o‘rganish, ularning likvidlilik ko‘rsatkichlari dinamikasini milliy va xalqaro standartlar asosida tahlil qilish;

transformatsiyalash jarayonining bank likvidliligiga ta’sir etuvchi omillarini aniqlash va ularni mikro hamda makroiqtisodiy nuqtayi nazardan baholash;

bank aktivlari va passivlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minalash mexanizmlarini takomillashtirish orqali likvidlilikni oshirish yo‘llarini ishlab chiqish;

tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni amaliyotdagi holatini tahlil qilish va tegishli xulosalarni shakllantirish;

tijorat banklari likvidliligini ta’minalashning ekonometrik tahlilini amalgalash;

transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidliligini tartibga solish muammolarini aniqlash va ularning yechimlari yuzasidan tavsiyalar yaratish;

raqamli iqtisodiyotda bank likvidliligini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari olingan.

Tadqiqotning predmeti transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidliligini mustahkamlashda vujudga keladigan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, korrelyatsiya va regressiya, qiyoslash va guruhash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining to‘lov qobiliyatini ta’minalash maqsadida barqarorlik indeksining “past daraja” ($10,5 \leq BBI \leq 19,6$), “o‘rta daraja” ($5,3 \leq BBI \leq 10,4$), “yuqori daraja” ($1 \leq BBI \leq 5,2$) qiymatlarini qo‘llash orqali aktivlarning rentabelligini barqaror darajasini ta’minalash taklifi asoslangan;

oddiy aksiyalar chiqarish orqali jalb qilingan mablag‘larning belgilangan ulushini yuqori likvidli, risk darajasi past aktivlarga va tez mobilizatsiya qilinadigan likvid aktivlar portfeliga maqsadli ravishda joylashtirish orqali joriy va

lahzalik likvidliligin uzlusiz ta'minlash taklifi asoslangan;

tijorat banklari likvidlilik darajasining o'rtacha koeffitsiyenti "xavfsiz" (1,20 dan 1,26 gacha) hamda "xavfli" (1,18 dan 1,15 gacha) ehtimollik qiymatlarini konseptual model orqali baholash yo'li bilan likvidlilik darajasini mustahkamlash bo'yicha taklifi asoslangan;

O'zbekistondagi tijorat banklarida likvidlilikni ta'minlash samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari likvidliligin mustahkamlashning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda BBI indikatoridan foydalanish orqali aktivlarning rentabellik darajasini aniqlash va ularni mos ravishda boshqarish imkoniyati yaratilish orqali bank resurslarining samarali joylashtirilishi shakllantirilgan;

tijorat banklari ustav kapitalini oddiy aksiyalar chiqarish orqali oshirish natijasida banklarning kapital bazasi mustahkamlanib, joriy va lahzalik likvidlilik ko'rsatkichlarini barqaror ushlab turish imkoniyati ishlab chiqilgan;

tijorat banklari likvidlilik darajasini konseptual model asosida baholash natijasida banklarning likvidlik koeffitsiyentlari bo'yicha xavfsiz (1,20–1,26) va xavfli ehtimollik (1,15–1,18) oraliqlari aniqlanib, ularga nisbatan baholash tizimi ishlab chiqilgan;

ekonometrik model asosida aniqlangan omillarning o'zaro bog'liqligi 2030-yilgacha bank likvidligini bashorat qilish va barqaror moliyaviy boshqaruv choralarini belgilash asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, yirik xorijiy banklar va O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari statistik ma'lumotlari tahlili natijalariga asoslanganligi hamda tijorat banklari amaliyotiga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishi natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining transmission mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalarini ishlab chiqish, mazkur muammoga bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni respublika tijorat banklarining likvidligini oshirish, ularning barqaror faoliyatini ta'minlash hamda transformatsiyalash jarayonida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuuni ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidligini oshirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarining to‘lov qobiliyatini ta’minlash maqsadida barqarorlik indeksining “past daraja” ($10,5 \leq BBI \leq 19,6$), “o‘rta daraja” ($5,3 \leq BBI \leq 10,4$), “yuqori daraja” ($1 \leq BBI \leq 5,2$) qiymatlarini qo‘llash orqali aktivlarning rentabelligini barqaror darajasini ta’minlash taklifi “Turonbank” ATBning “Bankni rivojlantirish strategiyasi”ning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (“Turonbank” aksiyadorlik-tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning natijasida 2025-yilda 2024-yilga nisbatan “Turonbank” ATB passivlari hajmida regulyativ kapitalning salmog‘i 4,8 foizli punktga oshgan, sof foydaning o‘sishini jami aktivlarning o‘sishidan yuqoriligi 37,5 foizni tashkil qilgan;

oddiy aksiyalar chiqarish orqali jalb qilingan mablag‘larning belgilangan ulushini yuqori likvidli, risk darajasi past aktivlarga va tez mobilizatsiya qilinadigan likvid aktivlar portfeliga maqsadli ravishda joylashtirish orqali joriy va lahzalik likvidliligini uzlusiz ta’minlash taklifidan ATB “Turonbank” tomonidan bank likvidliligini boshqarish siyosatini ishlab chiqishda foydalanilgan (“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiqi natijasida bankning yuqori likvidli aktivlari ulushi jami aktivlar tarkibida 2025-yil 1-aprel holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 12 foizga oshgan, bu o‘z navbatida bankning joriy va lahzali likvidliliği talabini, mos ravishda 1,2 va 1,3 koeffitsiyentda ta’minlash imkonini bergen;

tijorat banklari likvidlilik darajasining o‘rtacha koeffitsiyenti “xavfsiz” (1,20 dan 1,26 gacha) hamda “xavfli” (1,18 dan 1,15 gacha) ehtimollik qiymatlarini konseptual model orqali baholash yo‘li bilan likvidlilik darajasini mustahkamlash bo‘yicha taklifi ATB “Turonbank” amaliyotiga joriy etilgan (“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma’lumotnomasi). Mazkur taklif asosida 2024-2025-yillar oraliq‘idagi oylik ma’lumotlar asosida tijorat banklarining likvidlilik koeffitsiyenti 2025-yilda 2024-yilga nisbatan mos ravishda 5 foizga o‘sishiga erishilgan;

O‘zbekistondagi tijorat banklarida likvidlilikni ta’minlash samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida tijorat banklari likvidliligini mustahkamlashning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki 2030-yilga mo‘ljallangan bank umumiylari strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan va amaliyotga joriy qilingan (“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki 2025-yil 7-maydagi № 04-16/23385 ma’lumotnomasi). Mazkur taklif asosida tijorat banklari joriy likvidlilik koeffitsiyenti 2,5; 3,4 va 3,7 foizga o‘sishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g‘oya va xulosalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta ilmiy maqola (shundan 1 ta nufuzli xorijiy), boshqa ilmiy nashrlar hamda xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta maqola va tezislardan nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiylari hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarini bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning “**Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy va iqtisodiy jihatlari**” deb nomlangan birinchi bobida transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning mazmuni, tijorat banklarini rivojlantirishdagi ahamiyati va tahlil qilishning zaruriyati, tijorat banklari likvidligini mustahkamlashning samaradorligini baholash va ularning huquqiy asoslariga oid konseptual asoslar xorijiy manba va adabiyotlarda keltirilgan yondashuvlar batafsil tahlil qilingan.

Tijorat banklarining likvidlilik darajasini obyektiv baholash va uni samarali boshqarish uchun to'lovlarini tezkor amalga oshirish, depozit hisobvaraqlardan pul egalariga mablag'larni qaytarish, majburiyatlarning bajarilishini o'z vaqtida yo'qotishlarsiz ta'minlash taqozo etiladi. Bunda likvidlilikni mustahkamlashning vositalari va usullarini joriy etish zaruriyati boshqarish usullarini tanlab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida subyektning bevosita obyektga qay darajada ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqadi.

Ayni paytda jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotida hamon davom etayotgan inqiroz bank tizimi likvidliligining zaiflashuviga, aktiv va passiv operatsiyalarining disbalansligiga va milliy iqtisodiyotning retsessiya holatiga tushib qolishiga olib kelmoqda. Bunday holat banklarning faoliyatini barqarorlashtirish va samarali boshqarish uchun likvidlilik holatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni doimiy tahlil qilib borishga e'tiborni qaratmoqni taqozo etmoqda. Bu esa bank faoliyatida yuz beradigan salbiy o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish va bartaraf etish choralarini ko'rish uchun imkon yaratadi.

Tijorat banklari likvidligini oshirish masalalarini ishlab chiqish, amalga oshirish tartibga solishning nazariy-uslubiy xususiyatlari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur masala yuzasidan xorijlik iqtisodchi olimlar Dj.Sinki, P.Rouz, E.Dj.Dolan, Kris Dj.Barlrop, D.Mak Noton, O.Lavrushin, I.Larionova, V.Usoskin, V.Kolesnikov, G.Panova larning, Christa H.S. Bouwman, Òscar Jordà, Björn Richter, Moritz Schularick, Alan M. Taylorlarning, Javier Bianchi, Saki Bigiolarning, Natacha Valla, Béatrice Saes-Escorbiac, Muriel Tiessetlarning⁵.

⁵ Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг, пер. с англ.- Дж. Синки, М. Алтана Бизнес бусс, 2007-1018 с.; Роуз П.С. Банковский менеджмент. - М.: Дело-ЛТД. 1995.-743 с. Philip Davis, E. (2009); Долан Э. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. Пер.с англ. – М.: Кемпбелл, 1996-448 с;Колесников В. и др. Банковское дело. – М.: «Финансы и статистика». 1995-480 с. Панова Г. Кредитная политика коммерческого банка. М: МКЦ, 1997-464 с. Усоскин В. современный коммерческий банк: управление и операции. –М.: Антидар, 1998-320 с. Ларинова И. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. – М.: «Консалтбанкир», 2003-272 с. Лаврушин О. Банковское дело. Учебник. 2-е издание. – М.: Финансы и статистика, 2005-672 с. Christa H.S. Bouwman. Liquidity: How Banks

O‘zbekistonlik olimlar B.T. Berdiyarov, T.I.Boboqulov, R.R.Tojiyev, A.A.Omonov, O.B.Sattarovlarning⁶ ilmiy ishlarida tijorat banklari likvidliligin oshirishni takomillashtirish borasidagi muammolar tadqiq etilgan.

Tijorat banklarining likvidliligin mustahkamlash, shuningdek, tijorat banklarida korporativ boshqaruv, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, va moliyaviy xizmatlar diversifikatsiyasi bo‘yicha olib borilayotgan transformatsiyalar banklarning umumiy moliyaviy barqarorligi, ayniqsa likvidlik darajasini saqlab qolish bilan chambarchas bog‘ligi qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan hamda bu borada turli qarashlar shakllantirilgan. Mazkur masalaning o‘ziga xosligi shundaki, deyarli barcha holatlarda ushbu olimlarning tijorat banklarining likvidliligin ta’minalashga oid qarashlari, kengroq ma’noda tijorat banklarining likvidliligin mustahkamlashga bo’lgan nuqtai nazarları mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning shakllanish uslubiy hamda shakli keskin farqlanadi.

Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidliligin oshirish masalalari ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish sohasidagi dolzarb muammolarning yetarli darajada va kompleks tadqiq qilinmaganligi hamda ularning yechimini topish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur dissertatsiya tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda tarkibiy tuzilmasini belgilab olishga asos bo‘ldi.

Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining likvidliligin oshirish yo‘llari – bu tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minalash maqsadida amalga oshirilayotgan tashkiliy-strukturaviy, texnologik va institutsional o‘zgarishlar sharoitida, ularning qisqa muddatli to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyatini mustahkamlovchi usul, mexanizm va strategiyalar majmuasidir.

Tijorat banklarining transformatsiyalash jarayonida likvidliligin oshirish – ularning moliyaviy barqarorligini ta’minalash va iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligini kuchaytirishning muhim omilidir. Likvidlik darajasini boshqarish, uzoq muddatli moliyalashtirish ulushini oshirish, SBMK va BBI kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish orqali banklar risklarni kamaytiradi va ishonchli faoliyat yuritadi.

Create It and How It Should Be Regulated. Forthcoming in The Oxford Handbook of Banking (2nd edition; A.N. Berger, P. Molyneux, and J.O.S. Wilson (eds.)) Case Western Reserve University and Wharton Financial Institutions Center October 2013. P. 29-31. Oscar Jordà, Björn Richter, Moritz Schularick, Alan M. Taylor . Bank Capital Redux: Solvency, Liquidity, and Crisis. Federal Reserve bank of san Francisco working paper series. March 2017. P. 33-35. Javier Bianchi Saki Bigio. Banks, liquidity management and monetary policy. National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 September 2014. Working Paper 20490 <http://www.nber.org/papers/w20490> P. 21-25. Natacha Valla, Béatrice Saes-Escorbiac and Muriel Tiesset. Bank liquidity and financial stability./Irving Fisher Committee on Central Bank Statistics/IFC Bulletin No 28. August 2008 P. 41-42.

⁶ Berdiyarov B.T. Tijorat banklarining likvidliligin ta’minalash masalalari dis. avt. –T.: 2020, BMA, 46 б., Bobaqulov T.I. O‘zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta’minalash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. i.f.d. ilm. daraja. olish uchun baj. dis. avt. –T.: 2008, BMA, 36 б., Tojiyev R.R. Tijorat banklari likvidliligin boshqarishning innovatsion strategiyasi: i.f.n ... avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2011. 20 б..192 б. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. i.f.d. ilm. daraja. olish uchun baj. dis. avt. –T.: 2008, BMA, 36 б.

1-jadval

Tijorat banklarining likvidligini mustahkamlashga oid ilmiy-nazariy qarashlar⁷

Mualliflar	Ilmiy yondashuv va qarashlar
B.T.Berdiyarov	Tijorat bankining likvidliligi uning o‘z majburiyatları yuzasidan to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq miqdorda bajarish uchun “Nostro” vakillik hisobraqamlarida yetarli darajada pul mablag‘lariga ega bo‘lishidir. ⁸
A.A. Omonov	Likvidlik – bu bankning mijozlardan kutilgan va kutilmagan holatlarda moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabni qondirish qobiliyatidir. ⁹
R.R.Tojiyev	Tijorat banklarining likvidliligini innovatsion boshqarish orqali banklarning likvidliligini ta’minalash vazifalariga alohida e’tibor qaratgan. ¹⁰
Sh.Sh.Saipnazarov	Banklar faoliyatida transformatsiyalash jarayonlarining muvaffaqiyati bank likvidlik siyosatining uzlusiz monitoringi va uzviy transformatsiyasiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. ¹¹
E.Jarkovskaya	Tijorat bankining likvidliligi uning aktivlari va passivlari o‘rtasidagi mutanosiblik, joylashtirilgan aktivlar va jalb qilingan resurslarning muddatlari o‘rtasidagi muvofiqlik darajasidir. ¹²
A.Tavasiyev	Bank likvidliligi - tahlil jarayonida bank mijozlar va turli kontragentlar oldida majburiyatlarini bajarish imkoniyati va istagini mavjudligida namoyon bo‘ladi. ¹³
Christa H.S. Bouwman	Bank likvidliligi kapitalning yetarlilik darajasi va aktivlarning sifat parametrlarining ustuvorligi tufayli bank barqarorligining ikkinchi darajali o‘lchovi sifatida qarashgan. ¹⁴
Javier Bianchi va Saki Bigio	Global moliyaviy inqiroz davrida banklar tomonidan qarz berish va likvidlilikni pasayishi ortidagi asosiy omillarni tadqiq qilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kreditlashning o‘sishi iqtisodiyotdagi tartibsizliklarda likvidlilikka yuqori xavf tug‘dirishini aniqlagan. ¹⁵
V.L. Kireyev	Qimmatli qog‘ozlar bozoridagi muvaffaqiyatning kaliti, bu bozorning qisqa muddatli tebranishlariga javoban hissiy qarorlar qabul qilmaslikdir. ¹⁶
S. Mishkin	Transformatsiya davrida bank likvidligini boshqarishda markaziy o‘rinni “likvidlik buferlarini yaratish” egallashi lozim, deb hisoblaydi. U banklar o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishi uchun yuqori likvidli aktivlarni doimiy saqlashi kerakligini ta’kidlaydi ¹⁷ .

⁷ Muallif ishlanmasi.

⁸ Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi. i.f.n. avtoreferati. - Toshkent, BMA. 2002.

⁹ Omonov A.A Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Monografiya. Fan va texnologiyalari, 43 bet.

¹⁰ Tojiyev R.R. Tijorat banklari likvidlilagini boshqarishning innovatsion strategiyasi: i.f.n. avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2011. 20 b.

¹¹ Saipnazarov.Sh.Sh “Moliyaviy injiniring metodologiyasini takomillashtirish”. i.f.d. dissertatsiya avtoreferati TDIU. -T. 2024-yil. 13-b.

¹² Жарковская Е.П. Банковские дела. Учебник.-М.: 2006, Стр. 345-346.

¹³ Банковское дело: Управление и технологии. Учебное пособие для вузов. Под редакции А.Тавасиева. –М.:, 2001. Стр. – 388

¹⁴ Christa H.S. Bouwman. Liquidity: How Banks Create It and How It Should Be Regulated. Forthcoming in The Oxford Handbook of Banking (2nd edition.) 2013.P. 29-31..

¹⁵ Javier Bianchi Saki Bigio.Banks, liquidity management and monetary policy.National bureau of economic research 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 September 2014.

¹⁶ Банковское дело : учебник / В.Л. Киреев, О.Л. Козлова.-М.: КНОРУС, 2012.-240 с.(Для бакалавров).

¹⁷ Mishkin, F. S. (2007). The Economics of Money, Banking and Financial Markets (8th ed.). Pearson Education.

Hozirgacha jahon bank amaliyotida likvidlilikni boshqarishning yagona optimal usuli tanlab olingenicha yo‘q. Likvidlilikni boshqarishga tegishli yondashuvlar va usullar bugungi kunning talablariga yetarlicha javob bermaydi va bankning iqtisodiy jarayonlarida yagona texnologiyaning mavjud emasligidir. Har bir bank o‘zining likvidliliginini ta’minlashi uchun mustaqil ravishda o‘ziga mos usullarni tanlaydi, shu sababli ham bank likvidliliginini mustahkamlash usullari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ilmiy manbalarda bank likvidligrini mustahkamlashning qator usullaridan foydalanadi.

Xalqaro bank amaliyotida likvidli mablag‘larga bo‘lgan talabni baholashda mablag‘lar manbalari va undan foydalanish, mablag‘lar tarkibi va likvidlilik ko‘rsatkichlari usullaridan foydalaniladi.

Mablag‘lar manbalari va undan foydalanish usuli ikkita oddiy omilga asoslanadi: birinchisi, agar bank depozitlarining miqdori ko‘payib qarz miqdori kamaysa, bankning likvidli mablag‘lari ko‘payadi; ikkinchisi, agar depozitlarining miqdori kamayib qarz miqdori ko‘paysa, bankning likvidli mablag‘lari kamayadi. Ushbu usul bank amaliyotida qo‘llanilganda quyidagi vaziyatlarga e’tiborni qaratmoqni taqozo etadi. Agar likvidli mablag‘lar tarkibida chiqim kirimdan ortiqcha bo‘lsa, bank tizimida ijobjiy likvidlilik tafovuti yuzaga keladi. Likvidli manbalarning ortiqchaligini qisqa muddat ichida bartaraf etish uchun investitsiya bilan to‘ldirish yoki qoplash zarur. Agar likvidli mablag‘lardan foydalanish miqdori ularning manbalaridan ortiqcha bo‘lsa, u holda bank faoliyatida likvidli mablag‘larning tanqisligi yuzaga keladi.

Tadqiqotning “**Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidliliginin tartibga solish amaliyoti tahlili**” nomli ikkinchi bobida tijorat banklarining likvidlilikka ta’sir qiluvchi omillar, aktivlar sifati, resurslar tuzilmasi, qarz portfeli samaradorligini baholash shakllari va ko‘rsatkichlari, tijorat banklari transformatsion jarayonlarning banklar likvidliligiga ta’siri va o‘ziga xos jihatlari ularning sifat ko‘rsatkichlarini baholash usullari ochib berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish, to’lovlarining uzluksizligini hamda tijorat banklarida likvidlik tanqisligi vujudga kelgan hollarda ularni qisqa muddatli likvidlilik bilan ta’minlash maqsadida pul-kredit siyosatining 1) o‘rnatilgan foiz stavkalarida ta’minot asosida qisqa muddatli kreditlar ajratish; 2) belgilangan shart va foizlarda ta’minotsiz kreditlar ajratish; 3) chet el valyutasi asosida “svop” operatsiyalarini amalga oshirish kabi instrumentlaridan foydalanib kelinmoqda.

Ta’kidlash joizki, respublikamiz bank amaliyotida tijorat banklarining kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo’ljallangan zaxira ajratmalari summasi to’liq bankning xarajatiga olib boriladi. Shu sababli, zaxira ajratmalari miqdorining oshishi tijorat bankining sof foydasi miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa, tijorat bankining likvidliliki va to’lov qobiliyatiga nisbatan salbiy ta’sirni yuzaga keltiradi. Chunki sof foya tijorat banklari faoliyatining barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda likvidlilik ko‘rsatkichlarining doimiy monitoringi va tahlili muhim ahamiyatga ega. ATB “Turonbank” amaliyotiga joriy etilgan taklif asosida bank likvidligi

darajasining o‘rtacha koeffitsiyenti 2023–2024-yillar davomida 5 foizga oshgan bo‘lib, bu bank faoliyatining xavfsiz va barqaror zona sari harakat qilganini ko‘rsatadi. Konseptual model orqali $LK = LA / QMM$ shaklidagi matematik nisbatlar asosida bankning likvid aktivlari va qisqa muddatli majburiyatlar o‘rtasidagi nisbat prognoz qilinib, moliyaviy strategiyaning optimal yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Bunda likvid aktivlar o‘sish sur’atining majburiyatlar o‘sish sur’atidan yuqoriligi bankni likvidlik inqirozlaridan himoya qilish imkonini yaratadi. Ko‘rsatkichlarning 1.20 dan 1.26 gacha o‘sishi bankning to‘lov qobiliyati va ishonchlilagini oshirishga xizmat qilgan. Ushbu yondashuv boshqa tijorat banklari uchun ham amaliy ahamiyat kasb etib, moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Natijada banklar tizimi ichida raqobatbardoshlik va investitsion jozibadorlik kuchayadi.

Likvidlilik koeffitsiyent (LK):

Bu ko‘rsatkich bankning qisqa muddatli majburiyatlarini qisqa muddatli aktivlar bilan qoplash imkoniyatini bildiradi:

$$LK = \frac{\text{Likvid aktivlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} \quad (1)$$

Xavfsiz zona: 1.20 dan 1.26 gacha

O‘rtacha zona: 1.18 dan 1.15 gacha

Xavfli ehtimollik: pastga tushish tendensiyasi bilan bog‘liq.

Konseptual yondashuvga asoslangan model:

$$LK_t = \frac{LA_t}{QMM_t} \quad va \quad LA_t = LA_{t-1} \times (1 + \alpha) \quad QMM_t = QMM_{t-1} \times (1 + \beta) \quad (2)$$

Bu yerda:

LA_t – likvid aktivlar hajmi

QMM_t – qisqa muddatli majburiyatlar

α – likvid aktivlar o‘sish sur’ati

β – majburiyatlar o‘sish sur’ati

Agar $\alpha > \beta$ bo‘lsa \rightarrow likvidlilik oshadi.

$$LK_{2023} = \frac{600}{500} = 1.20; \quad LK_{2025} = \frac{693}{550} \approx 1.26$$

Bu ko‘rsatkich xavfsiz zona ichida, ya’ni taklif maqsadiga erishilgan.


Koeffitsiyent 1.20 dan 1.26 gacha o‘sdi, bu konservativ va xavfsiz likvidlilik siyosatini bildiradi.

Likvid aktivlarning o‘sish sur’ati (15.5%) majburiyatlar o‘sish sur’atidan yuqori bo‘lgan:

$$\alpha = \frac{693 - 600}{600} = 15.5\% > \beta = \frac{550 - 500}{500} = 10\%$$

Bunda konseptual modelning asosiy strategiyasi: likvid aktivlarning majburiyatlardan tezroq o‘sishini ta’minlash orqali barqarorlikni oshirish. Bu

model amaliyotga tatbiq qilingani va ijobiy natija bergani bankning likvidlik siyosatidagi muvaffaqiyatni ko'rsatadi.



1-rasm. AT “Turonbank”ning joriy likvidlilik koeffitsiyentining darajasi¹⁸

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, joriy likvidlilik koeffitsiyenti bankning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash qobiliyatini ifodalaydi. 2021–2025-yillar davomida AT “Turonbank”ning joriy likvidlilik koeffitsiyenti barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Bu bankning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida qoplash imkoniyati yildan-yilga yaxshilanayotganini bildiradi. Ko'rsatkichning 1,2 darajaga yetishi bankning likvid aktivlari yetarli, resurslar tarkibi muvozanatli va likvidlik boshqaruvi samarali ekanini tasdiqlaydi.

2-jadval

AT “Turonbank”da likvidli aktivlar darajasi va brutto aktivlarning daromadliligi¹⁹, foizda

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Likvidli aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i	19,8	25,2	31,1	31,7	21,6
Aktivlarning daromadlilik darajasi	23,7	19,2	14,1	10,7	9,6


Izoh: aktivlarning daromadlilik darajasi bank yalpi daromadini brutto aktivlarga bo'lish va olingan natijani 100 foizga ko'paytirish yo'li bilan aniqlangan.

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yaqqol ko'rish mumkinki, 2021–2025-yillarda Turonbankda likvidli aktivlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'i yuqori bo'lган. Umuman, “Turonbank” ning likvid aktivlar ulushi yuqori sur'atda o'sib borayotgan bo'lsa-da, aktivlar daromadliligi pasayish tendensiyasini

¹⁸ Turonbankning balans hisobotlari. www.turonbank.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁹ Turonbankning balans hisobotlari. www.turonbank.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ko‘rsatgan. Bu esa bankning foyda marjasi pasaygan, biroq likvidlik xavfsizligi saqlanib qolganini bildiradi.



2-rasm. AT “Turonbank”ning depozitlari hajmida talab qilib olinadigan depozitlarning salmog’i²⁰, foizda

2-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-2025-yillar davomida AT “Turonbank”da talab qilib olinadigan (muddatsiz) depozitlar ulushi 36 foizdan 28,5 foizgacha pasaygan. Bu esa bankning depozit siyosati tobora uzoq muddatli resurslar bazasiga yo‘naltirilayotganini anglatadi. 2025-yilda bank jami depozitlarining qariyb 70 foizini muddatli omonatlar tashkil etib, likvidlik barqarorligi sezilarli mustahkamlangan.

3-jadval AT “Turonbank”da tasniflangan kreditlarining tarkibi²¹, foizda

Kreditlar toifasi	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Standart	91,8	92,3	93,1	94,4	95,0
Qoniqarsiz	4,2	3,8	3,1	2,2	2
Shubhali	2,7	2,4	2,3	2,0	1,7
Umidsiz	1,3	1,5	1,5	1,4	1,3
Tasniflangan kreditlar-jami	100	100	100	100	100

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2021–2025-yillar davomida AT “Turonbank”da kredit portfeli sifati va likvidlik darajasi o‘zaro muvofiq ravishda yaxshilangan. Standart kreditlar ulushi 91,8 foizdan 95,0 foizgacha oshgani bankning aktivlari sifatining ortib borayotganini, shuningdek, qoniqarsiz va shubhali kreditlarning kamayishi (4,2 foizdan 2,0 foizgacha) likvid aktivlar hajmining barqarorligini ta’milaganini ko‘rsatadi. Bu davrda muammoli kreditlar qisqarishi natijasida bankning joriy likvidlilik koeffitsiyenti 1,17 dan 1,20 gacha o‘sib, qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati yaxshilandi. Demak,

²⁰ Turonbankning balans hisobotlari. www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida tuzilgan.

²¹ Turonbankning balans hisobotlari. www.turonbank.uz ma’lumotlari asosida tuzilgan.

kredit portfeli sifati oshgani sari bankning likvidlik ko'rsatkichlari ham mustahkamlanib, umumiy moliyaviy barqarorlik darajasi yuqorilagan.

4-jadval

AT “Turonbank”da muddati o‘tgan kreditlar va kreditlar bo‘yicha zaxiralar darajasi²², foizda

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Muddati o‘tgan kreditlarni brutto kreditlarga nisbatan darajasi	0,0	0,0	0,6	0,6	0,1
Kreditlar bo‘yicha zaxiralarning brutto aktivlarga nisbatan darajasi	0,4	0,8	0,2	0,1	0,2

4-jadval ma'lumotlariga ko‘ra, 2021–2025-yillar davomida AT “Turonbank”da muddati o‘tgan kreditlar darajasi juda past 0,0-0,6 foiz oralig‘ida saqlanib, 2025-yilga kelib 0,1 foizgacha kamaygan. Bu bank kredit portfeli sifatining yuqoriligidan dalolat beradi. Kreditlar bo‘yicha zaxiralar ham 0,8 foizdan 0,2 foizgacha qisqargan, bu esa kredit risklari kamaygani va bankning aktivlar sifati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Umuman, ushbu ko‘rsatkichlar “Turonbank”ning kredit portfeli barqarorligi va likvidlik salohiyati yuqori darajada ekanini tasdiqlaydi. Bu esa, AT “Turonbank”ning likvidlilagini ta’minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

5-jadval

AT “Turonbank”ning taqqoslama ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma'lumot²³


Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2021	2022	2023	2024	2025
Aktivlarning majburiyatlarga nisbati, %	117,5	117,3	118,1	118,4	119,0
Aktivlar, mlrd so‘m	12 878,7	13 200,0	15 938,7	17 585,3	18 860,2
Majburiyatlar, mlrd so‘m	10 999,8	11 250,0	14 059,8	15 687,9	16 920,2
Kreditlarning depozitlarga nisbati, %	140,1	143,5	146,8	150,2	152,9
Kreditlar, mlrd so‘m	7 521,3	9 874,4	12 874,7	14 567,3	16 823,5
Depozitlar, mlrd so‘m	5 368,0	6 883,0	8 767,4	9 705,1	11 004,1

2021–2025-yillar davomida AT “Turonbank” aktivlarining majburiyatlarga nisbati 117–119 foiz oralig‘ida saqlanib, bank balansining likvidligi yuqori darajada bo‘lgan. Kreditlarning depozitlarga nisbati esa 140,1 foizdan 152,9 foizgacha oshib, bank faoliyatining asosiy yo‘nalishi - kreditlash hajmining tez

²² Turonbankning balans hisobotlari. www.turonbank.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan.

²³ Turonbankning balans hisobotlari. www.turonbank.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan.

o'sishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, depozitlar bazasi ham izchil kengaygan, bu esa uzoq muddatli resurslarning shakllanishini mustahkmlagan. Natijada, 2025-yilga kelib AT "Turonbank" aktivlar hajmini 18 860 mlrd so'mgacha, majburiyatlarni esa 16 920 mlrd so'mgacha oshirgan. Bu ko'rsatkichlar bankning kapital yetarliligi, likvidlik barqarorligi va moliyaviy barqaror faoliyatini ta'minlagan.



3-rasm. AT "Turonbank"ning investitsiya portfeli tahlili²⁴, foizda

3-rasm ma'lumotlari 2021-2025-yillar davomida AT "Turonbank"ning investitsiya portfeli bosqichma-bosqich kengayib, 2,5 foizdan 5,1 foizgacha oshgan. Bu davrda bankning likvid aktivlari tarkibida investitsion moliyaviy vositalarning ulushi ortgan, bu esa bankning uzoq muddatli daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltirilgan siyosatini aks ettiradi.

Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar ulushi 1,3–1,5 foiz oralig'ida barqaror saqlanib qolgan bo'lib, bu qisqa muddatli likvidlikni ta'minlovchi xavfsiz aktivlar ulushi o'zgarmaganini bildiradi. Natijada, bank investitsiya portfelini oshirgan bo'lsa-da, bu jarayon joriy likvidlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan, aksincha, aktivlar diversifikatsiyasi orqali likvidlikning barqarorligini kuchaytirgan.

Umuman olganda, 2025-yilga kelib investitsiyalar ulushining 5,1 foizgacha ko'tarilishi AT "Turonbank"ning uzoq muddatli investitsion strategiyasi likvidlikni saqlagan holda amalga oshirilganini ko'rsatadi. Bu holat bankning barqaror foyda olish salohiyatini oshirgan, likvidlik koeffitsiyentining xavfsiz chegaralarda saqlanishiga yordam bergen.

Likvidlilik va likvidlilini yaratish parametrlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil barqarorlik standartlari va talablari mavjudligi tufayli har doim murakkablashadi. Shuning uchun bank likvidliligi ko'rsatkichlari bankning balansiga kiritilgan bankka tegishli bo'lgan bir nechta parametrlar bilan aniqlanadi. Ammo bu balans ko'rsatkichlari o'zgarishi bankning likvidlilik maqomiga ta'sir

²⁴ Turonbankning balans hisobotlari. www.turonbank.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ko'rsatishini anglatmaydi. Banklar likvidliligi adabiyotlarni tahlilida ta'kidlanganidek, moliya tizimi va makroiqtisodiy barqarorlik kabi balansdan tashqari faktorlarga bog'liq.

AT "Turonbank" ning likvidliligi uchun ekonometrik modelni tuzishda bankka xos va uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar kiritilgan. Modellashtirishda 2020-2025-yillar mobaynida har choraklik balans va makroiqtisodiy ma'lumotlar ko'rib chiqilgan. Matematik spesifikatsiya quyidagi tarzda yaratilgan:

$$Lik_t = \alpha_0 + \beta_1 DEP_t + \beta_2 KRD_t + \beta_3 RA_t + \beta_4 YaIM_t + \beta_5 INF_t + \varepsilon_t \quad (8)$$

Bu yerda, Lik_t – t vaqt ichida ATB "Turonbank" ning likvidlilik koeffitsiyenti, DEP_t – t vaqt davomida ATB "Turonbank"ning depozit hajmi, KRD_t – t vaqt davomida ATB "Turonbank"ning kredit hajmi,, RA_t – t vaqt davomida ATB "Turonbank" ning riskli aktivlari, $YaIM_t$ – t vaqt davomida ATB "Turonbank"ning YIM hajmi, INF_t –t vaqt ichida ATB "Turonbank"ning inflyatsiya darjasи, ε – xatolik muddati.

Birinchi bosqichda ma'lumotlar turliligi tekshirildi va deskriptiv statistika orqali dastlabki ma'lumotlar tahlili amalga oshirildi.

6-jadval Diskriptiv statistika²⁵

	LIK	DYeP	KRD	RA	BSI	YIM	INF
O'rtacha arifmetik	0.525119	1.26Ye+09	1.60Ye+09	1.60Ye+09	0.183952	129097.2	5.090476
Mediana	0.533000	7.11Ye+08	1.05Ye+09	1.04Ye+09	0.179000	107397.3	4.300000
Maksimum	0.599000	4.04Ye+09	4.78Ye+09	4.80Ye+09	0.282000	407514.5	14.40000
Minimum	0.434000	40624201	4.92Ye+08	5.06Ye+08	0.120000	25763.90	2.000000
Std. chetlanish	0.061589	1.15Ye+09	1.32Ye+09	1.33Ye+09	0.043650	91524.35	3.616615
Assimetriya	-0.236978	1.210036	1.551840	1.552870	0.746225	1.399048	1.557223
Kurtosis	1.368054	3.203173	4.042220	4.041487	3.045493	5.098076	4.717871
Jarque-Bera	2.526895	5.160774	9.379169	9.389031	1.950791	10.70236	11.06950
Ehtimollik	0.282678	0.075745	0.009191	0.009145	0.377043	0.004743	0.003947
Summa	11.02750	2.64Ye+10	3.37Ye+10	3.36Ye+10	3.863000	2711041.	106.9000
Chetlanish kvadratik yig'indisi	0.075863	2.63Ye+19	3.49Ye+19	3.55Ye+19	0.038107	1.68Ye+11	261.5981
Kuzatuvlар	21	21	21	21	21	21	21

Diskriptiv statistik ma'lumotlarning natijalari shuni ko'rsatadi, har bir tanlangan o'zgaruvchiga oid ma'lumotlar odatda taqsimlanadi va ekonometrik modellash uchun qo'llaniladi. Tahlilni davom ettirish uchun kurtosis, assimetriya va Jar-Bera koeffitsiyentlari munosib birlikka ega bo'ldi.

²⁵ ATB "Turonbank" ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Keyingi bosqich ekonometrik tahlil bo'yicha eng muhim qadamdir. Ma'lumotlar xususiyatlariga muvofiq, OLS testi ekonometrik tahlil to'plami EVIEWS 9.0 orqali amalga oshiriladi.

Quyidagi 7-jadvalda depozitlar hajmi, kreditlash hajmi, bank barqarorligi ko'rsatkichlari va YIM, ATB "Turonbank"ning likvidlilikiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, bank barqarorligi ko'rsatkichlari ATB "Turonbank"ning likvidliligini ta'minlashning eng omilkor omili bo'lib, u 0,87 birlik ijobiy ko'rsatkichni ko'rsatmoqda.

O'zgaruvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ikkilamchi koeffitsiyentlar kam bo'lib, xavf talablari va inflyatsiya dinamikasi bankning likvidlilik darajasini pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, ehtimolli koeffitsiyentiga qaramasdan, likvidlilik bo'yicha yetarlicha ahamiyatsiz bo'lgan salbiy omillar ko'rsatkichining ishonch oralig'i ham 10% ni tashkil etadi. OLS testining diagnostik qismida, Durbin-Watson statistikasi vaqt oralig'i orasida ijobiy avtokorrelyatsiyani ko'rsatadigan 0-2.0 oralig'ida bo'lib, bo'lim qoidasiga ko'ra, har qanday avtokorrelyatsiyani qabul qilish uchun 1,5-2,5 oralig'idagi Durbin-Watson koeffitsiyenti normaldir.

7-jadval

ATB "Turonbank"uchun OLS testi natijalari²⁶

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	Std. xatolik	t-Statistik	Ehtimollik
C	0.644351	0.026390	24.41644	0.0000
DYeP	3.01Ye-11	2.09Ye-11	1.439431	0.0720
KRD	6.84Ye-11	9.69Ye-11	0.705411	0.0921
RA	-6.80Ye-11	9.20Ye-11	-0.738909	0.0722
BSI	0.873587	0.224989	6.989296	0.0000
YIM	9.13Ye-10	1.45Ye-07	0.186287	0.0951
INF	-0.000574	-0.003927	-0.146274	0.0858
R-squared	0.912488	Mean dependent var		0.525119
Adjusted R-squared	0.874983	S.D. dependent var		0.061589
S.E. of regression	0.021776	Akaike info criterion		-4.554788
Sum squared resid	0.006639	Schwarz criterion		-4.206613
Log likelihood	54.82527	Hannan-Quinn criter.		-4.479225
F-statistic	24.32975	Durbin-Watson stat		1.791117
Prob(F-statistic)	0.000001			

Ekonometrik shakllantirilgan model natijalariga ko'ra, boshqa omillarni hisobga olmagan holda, ATB "Turonbank"ning likvidlilik darajasiga quyidagi asosiy omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Depozitlar hajmining 1 % ga oshishi, bank likvidlilik koeffitsiyentini o'rtacha 0,03 % ga oshishiga olib keladi. Bu shuni anglatadiki, depozitlar bazasining kengayishi likvid resurslar manbaini mustahkamlaydi va bankning qisqa muddatli to'lovga layoqatlilik imkoniyatlarini yaxshilaydi. Kredit hajmining 1 % ga oshishi, bank likvidligini 0,07 % ga oshiradi, bu esa kredit portfelining o'sishi daromad manbalarini ko'paytirsa-da, likvid


